

SHE'RIYATDA XUSUSIYAT BILDIRUVCHI SIFAT LEKSEMALAR USLUBIYATI

Marjona Mansurova

BuxDPI O'zbek tili va adabiyoti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20541159>

Annotatsiya: Uvaysiy she'riyati leksik boyligining uslubiy xususiyatlarini tadqiq qilish uning klassik o'zbek tili leksikasining boy imkoniyatlaridan she'riyat mavzusi va mazmuniga mos ravishda foydalanganidan dalolat beradi. Uvaysiy she'rlarida xususiyat sifatleri asosan tashqi ta'sirni emas, ruhiy ta'sir, shaxslararo munosabatni reallashtirish maqsadida qo'llangan. Shoira inson xususiyatini ifodalovchi ijobiy yoki salbiy ma'no ottenkaga ega sifatlarning uslubiy imkoniyatlaridan, ma'nodoshlik, zid ma'nolilik hodisasi asosida antitezadan uslubiy vosita sifatida foydalangan.

Tayanch so'zlar: she'riyat, xususiyat sifatlari, ma'nodoshlik, zid ma'nolilik, antiteza, ijobiy yoki salbiy ma'no ottenka

Sifatlar ichida xususiyat bildiruvchi sifatlar ~xususiyat~ semasi bilan katta bir guruh bo'lib ajralib turadi. Bu guruh sifatlarning ma'no turlari tasnif qilingan barcha adabiyotlarda tilga olingan. Sifatlarning ma'no guruhlari haqida mufassal fikr yuritgan Maqsuda Sodiqova xususiyat bildiruvchi sifatlarni ~xarakter-xususiyat, xossa va qimmat bildiruvchi sifatlar~ ichida kichik guruhlarga bo'lgan holda tasnif qilib beradi [Sodiqova M., 1974. – B.49-51]. Xususiyat bildiruvchi sifatlar ayni shu ~xususiyat~ semasi bilan bir arxisema ostida umumlashadi. Bu guruhdagi sifatlar ~odamga nisbatan~, ~jonivorlarga xos~, ~kechim~ semalari bilan kichik guruhchalarni tarkib toptiradi. Mana shu kichik guruhchalarni ajratib turuvchi yuqorida aytilgan semalar integral semalar hisoblanadi [Tojimatov, 2007. – B.110].

Xususiyat bildiruvchi sifatlar, ayniqsa inson xarakter-xususiyatini ifodalab kelgan so'zlar tilda juda ko'p qo'llanadi: yaxshi, badjahl, yoqimtoy, muloyim, ziyrak kabi. Bulardan bir turkumi inson, predmet va hayvonlarning xarakter-xususiyatini ifodalashda umumiy qo'llanadi, bir turkumi esa faqat inson xarakteri yoki predmet xossasini ifodalashga xos bo'lib qolgan. She'riyat asosan inson ruhiyati, kechinmalari tasviridan iborat adabiy janr hisoblangani bois Uvaysiy she'riyatida asosan, inson xarakterini ifodalaydigan xususiyat sifatlarning qo'llanilganligini kuzatamiz.

Inson xarakter-xususiyati ijobiy yoki salbiy ekanligini bilamiz. Shunga ko'ra xususiyat sifatlari ham ijobiy va salbiy mazmunga ega. Har ikki mazmunga kirmaydigan, ijobiy ham, salbiy ham bo'lmagan sifatlar ham bor.

Uvaysiy she'riyatida insonning xususiyatiga xos ijobiy xarakter ifodalovchi quyidagi sifatlarning qo'llanilgani kuzatildi: *kamtar, vafodor, mehribon, mehnatkash, shakarlab, g'aribparvar, oqil, dilkash, yaxshi, g'amxo'r, karambaxsh, sarv qomat, mo'min* kabi. Masalan,

G'aribparvardursan begim, bekafsh qoldi bul poyim,

Quloq solg'il, Qozoqoyim, kafshim yo'qoldi, sandamu? (Uvaysiy she'riyatidan).

Shoira she'rlarida salbiy xususiyat bo'rtib turuvchi *vahshiy, rahmsiz, g'addor, badmehr, nodon, sitamgar, makkor, mal'un, zulmdor, nomard, vafosiz, sangdil, dilafkor, badxo', jabrkor, bebok, dilozor, nokas, johil* kabi sifatlardan unumli foydalangan. Masalan, g'addor sifati aldamchi, xiyonatchi, berahm, zolim ma'nolarini bildirishiga ko'ra salbiy konnotativ ma'noga ega:

Do'st deb tuttum etokin ul falak g'addorni,

Shatta urdi ketti mag'rib, topti ozor oftob (U.sh.).

Yoki **makkor** sifati ham “*makr qiluvchi, hiylagar*” salbiy ma’no ifodalashga xizmat qiladi:

Zulm ko’rgancha ani mehri ziyod o’lg’ay ajab,

Turfa badmehri o’zi makkora oshiq bo’lmisham (U.sh.).

Kishi xarakter-xususiyatiga oid yana bir turkum sifatlar borki, ular oraliq vaziyatda bo’lib, ma’nosida ijobiy yoki salbiylik xususiyati kontekst, nutq vaziyati orqali ma’lum bo’ladi. Uvaysiy she’rlarida ham bunday xususiyat bildiruvchi sifatlar tez-tez qo’llangan. Masalan, *sho’x, shaddod, ayyor, beparvo, berahm* sifatlarida o’rni bilan ijobiy, o’rni bilan esa salbiy ma’no bo’yog’i mavjudligi kuzatiladi.

H.Tojimatov ~xususiyat~ arxisemali sifatning ~odamga nisbatan~ integral semali guruhlarini bir necha differensial semali sifatarga ajratib tahlil etgan. Bu differensial semalar ~kuch qo’llovchi~, ~manfaatdor~, ~munosabatli~, ~ruhiy holatli~, ~ta’minotli~, ~ustaligi~ kabilardan iborat [Tojimatov, 2007. – B.11]. Bunday differensial semaga ega sifatning har biri bir-biri bilan nozik tomoni — potensial semasi bilan farqlanadi. Masalan, ~xususiyat~ arxisemali sifatning ~odamga nisbatan~ integral semali guruhiga ~kuch qo’llovchi~ differensial semaga ega bo’lganlari kirib, ular bir necha sifatlardan iborat. Unga *zo’ravon, zolim, kasofat, badjahl, ablah* kabi sifatarni kiritish mumkin. Ular kuch qo’llashda ma’lum tomonlari bilan bir-biridan farq qiladi. *Zo’ravon* sifatidagi ~kuch qo’llash~ semasi pragmatik semasiz bo’lsa, *zolim* sifatidagi ~kuch qo’llash~ differensial semasi ~jismoniy ziyon yetkazish~ integral semasi bilan undan ajralib turadi. *Kasofat* sifatida ifodalangan ~kuch qo’llash~ semasi kishi tabiatiga tobeligi bilan o’ziga xosdir. *Badjahl* sifatida ~kuch qo’llash~ differensial semasi ~ta’qib~ pragmatik semasi bilan ko’zga tashlanadi. *Ablah* sifatining ~kuch qo’llovchi~ differensial semasi uni asoslash pragmatik semasi bilan yuqoridagi sifatlardan farq qiladi.

Uvaysiy she’riyatida qo’llangan xususiyat sifatlarini ham semalariga ko’ra tahlil etish mumkin. Shoir she’rlarida qo’llangan ~xususiyat~ arxisemali sifatning ~odamga nisbatan~ integral semali guruhi tashkil etadi.

~Xususiyat~ arxisemali sifatning ~odamga nisbatan~ integral semali guruhiga, ~kuch qo’llovchi~ differensial semaga ega bo’lgan sifatlarga *rahmsiz, berahm, vahshiy, zulmdor, jabrkor* sifatlarini kiritish mumkin. Masalan,

Ko’rdi Mansur shah yuzin, berdi analhaqdin xabar,

Bu majoz shohlarni zulmdori bir nafas.

~kuch qo’llovchi~ differensial semaga ega bo’lgan sifatlarda kuchini namoyon etish, ko’rsatib turish ottenkasi bu turkumni boshqalaridan ajratadi:

Shikva qilmay netayin vaxshiyi tarsobachadin,

Xoki rahi bo’ldi tanim bo’lmadi hech rom menga (U.sh.).

Shu guruhga faqat insonga xos xususiyat bildiruvchi sifatlarnigina emas, narsa-predmet xususiyatlarini ham kiritish mumkin. Masalan, **jallod** asli “kallakesar, shafqatsiz” ma’nosidagi inson belgisi. Uvaysiy kabi so’z san’atkorlari tomonidan bu so’zni ko’zga yoki boshqa narsaga nisbatan metaforik ko’chirib o’sha narsaning (masalan, ko’zning) xususiyati tarzida ifodalangan holatlar ham mavjud. Masalan, *Bu jallod ko’zlaring abru qilich bo’ynimg’a solg’ondur.*

Bu sifatarni ~kuch qo’llovchi~ differensial semasi asosida ajratish shartli. Chunki bunday sifatlar ruhiy holatga nisbatan bo’ladigan ta’sir nuqtai nazaridan bo’lib, ko’chma ma’nosi asosida qo’llaniladi. Masalan,

Ey dilo, sen shikva kimdin aylading, kimdin gila

Boshda ul qattig’ ko’ngul berahm dilbardur sazo (U.sh.).

She'riyat, xususan Uvaysiy she'riyati xususiyatidan kelib chiqib, bu sifatlarni boshqa turga kiritishni to'g'ri deb bilamiz. Ya'ni, yuqorida keltirilgan ~ kuch qo'llovchi ~ differensial semaga ega bo'lgan sifatlarni ~ munosabatli ~ differensial semasiga ega deb hisoblaymiz. Chunki bu sifatlarni tashqi ta'sirni emas, ruhiy ta'sir, shaxslararo munosabatni reallashtirish maqsadida qo'llangan.

Yana shu guruhga *mehribon, g'aribparvar, g'amxo'r, karambaxsh, g'addor, badmehr, sitamgar, sitamkor, makkor, zulmdor, nomard, vafosiz, sangdil, dilqfor, badxo', sho'x, ayyor, beparvo* kabilarni kiritamiz.

Uvaysiy ijodida qo'llangan sho'x, shaddod, badxo', vafosiz, ayyor sifatlarini ~ munosabatli ~ differensial semaga ega turiga kitar ekanmiz, bu sifatlarni shoira she'riyati kontekstida murojaat birligi sifatida qo'llangan hamda bunda shaxsga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabat yaqqol namoyon bo'lmagan. Bu sifatlarni quyidagi ma'nolarni ifodalagan:

Sho'x sifatida “o'z qiliqlari, ishvasi, noz-karashmasi bilan o'ziga maftun qiladigan” ma'nosi ifodalangan. Umuman mumtoz adabiyotda sho'x so'zi go'zal ma'shuqaga nisbatan qo'llangan:

Aydimki sitamkora, mendin o'z erur ag'yor,

*Aydi, bu zamon ul **sho'x** mahrammu ekin oyo.*

~ Xususiyat ~ arxisemali sifatlarning ~ odamga nisbatan ~ integral semali guruhiga ~ ruhiy holat ~ differensial semali sifatlarni mansub ekanligini yuqorida aytgan edik. Shunday differensial semali *nodon*, *osiy*, *telba* sifatlari shoira asarlarida mavjudligi aniqlandi. *Telba* sifatining differensial semasi ~ ortiqcha berilish ~ ruhiy holatni ifodalashi, *nodon* sifatining differensial semasi ~ farosat jihatdan norasolik ~, *osiy* leksemasi sememasining differensial semasi ~ ishonchsiz ruhiy holat ~ ifodasiga ko'ra o'ziga xosdir.

Sifatlarda ko'chma ma'no ifodalash, ya'ni bir ma'nodan boshqa bir ma'no ifodalashga o'tish, ko'chish xususiyati mavjud. Bunday holatga Uvaysiy she'rlarida ham guvoh bo'lamiz. Masalan, *pok* sifati “kir, chang kabilardan xoli” ma'nosiga ega. Uvaysiy she'riyatida insonga xos xususiyat bildirib, “halol”, “to'g'ri” ma'nosiga ega bo'lgan:

Ilkimni bu olam elidin yuvmagim uldur,

Ul **pok** zamirimni ki domoni muhabbat.

Noyob sifati predmetga, ba'zan insonga nisbatan ham qo'llanadi. Bu o'rinda she'rning xususiyatiga nisbatan qo'llangan:

Munqati'dur obi nayson qulzumi mazmundin,

*She'r aro bo'ldi mamot ul gavhari **noyoblar** (U.sh.).*

Rasvo aslida kishining xarakterini ifodalovchi sifatga kiritilgan. Bu sifat holat sifatiga ko'chishi mumkinligini she'riy asarda kuzatamiz:

***Rasvo** bo'lur gar o'lsa kimi mubtalo senga,*

Begonadur taalluqidin oshino senga.

Uvaysiy she'rlarida xususiyat bildiruvchi sifatlarni sinonimik tarzda qo'llagan. Quyidagi misrada **ko'ngli qattiq** va **bag'ri tosh** sifat iboralari ma'nodosh bo'lib, ma'no kuchaytirishga xizmat qilgan:

Bo'ldum duchor **ko'ngli qattig'**, **bag'ri toshqa,**

Ey ahli dil, ko'ngulni beringkim sinoshqa (U.sh.85)

Kishilarga xos salbiy xarakter-xususiyatlarni bildiruvchi sifatlarni ko'pincha ijobiy xarakter-xususiyatlarni bildiruvchi sifatlarga antonim sifatida qo'llaniladi. Sifatlarning bu xususiyatidan shoira o'z she'rlarida uslubiy vosita sifatida foydalangan. Masalan,

Bu **nodonlar** aro **oqil** eli bo'lg'uncha majnun beh,

Junun xaylini manzilgohig'a tog' ila homun beh.

She'r misralarida qo'llangan **nodon** va **oqil** antonimlari uslubiy vosita vazifasini bajarib, fikr ta'sirchanligini oshirgan.

Xullas, Uvaysiy insonga xos xususiyatlarni ifodalovchi sifatlarning uslubiy imkoniyatlaridan to'la darajada foydalanish mahoratini namoyon etgan. Bunda u xususiyat guruhiga kiruvchi sifatlarning ma'nodoshlaridan foydalangan, ularni qarama-qarshi ma'no ifodalovchi paradigmalardan foydalanib, antiteza kabi uslubiy vositalarni yuzaga keltirgan.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Sodiqova M. Hozirgi o'zbek tilida sifat. – T.: Fan, 1974.
2. Tojimatov H. Sifat sememasining reallashuvida kontekst: Filol. fanlari nomzodi ... diss.avtoref. – Toshkent, 2007
3. Uvaysiy she'riyatidan. Tuzuvchi M.Qodirova. Toshkent, 1980.